

**Loyiha rahbari:**

f.f.n., dots.Tilavov Abdumurod Xolmurotovich.  
**E-mail:** tilavov@navoiy-uni.uz  
**Tel:** +998946252507

**Loyihaning maqsadi:** O‘zbek adabiyoti tarixining eng qadimgi davrlaridan tortib XIII asrga qadar davr oralig‘ini qamrab olgan darslik, o‘quv qo‘llanmalarining nisbatan eskiligi, davr talabiga muvofiq ularda berilgan ma'lumotlarning bugungi kunga to‘g‘ri kelmasligi barcha davrlarni qamrab olgan yaxlit monografiyaga ehtiyojni yuzaga keltirdi. Ushbu ehtiyoj sabab loyiha o‘z ishini rejali tarzda tashkil etdi. O‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga ko‘ra -“Qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo‘lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi” monografiyasini har bir tadrijiy tamoyilda; aniqlangan va tahlil va tadqiqqa tortilgan eng qadimgi yozma manbalar asosida yoritish vazifasi belgilab olindi.

**Loyihaning qisqacha tavsifi:** Turkiy-run yozma toshbitiklari, xususan, O‘zbekistondan topilgan toshbitiklarning qadimgi yozma adabiyot, folklor, umuman, ma’naviy va ma'rifiy jarayon uchun ahamiyati benihoya katta ekanini alohida ta’kidlash lozim. Loyihada, birinchi navbatda, O‘zbekiston hududidan topilgan toshbitiklarga alohida e’tibor qaratiladi. Mazkur toshbitiklarning umumiy holati, ularning deshifrovkasi haqida fikrlar bildiriladi.

**Kutilayotgan natija:** Loyiha a’zolari tomonidan o‘zbek adabiyotining tarixiga oid 1 ta monografiya (prof. N.Rahmonovning “Tarixdan oziqlanib” monografiya nazarda tutiladi; hajmi 7 b.t.; loyiha mavzusi bo‘yicha 118 sahifa tadqiqot bajarilib, monografiyaga kiritilgan), 50 dan ortiq ilmiy maqolalar e’lon qilingan. Bu monografiyaning asosiy qismi turkiy yozma va og‘zaki manbalar tadqiqi va tahlili asosida yozilganligi bilan ajralib turadi. Loyihada belgilangan maqsad va vazifalarning umumiy mazmuni “Qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo‘lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi” nomli monografiyani yaratish dolzarb ahamiyatga ega va buning uchun yetarli ilmiy salohiyat mavjud, degan xulosani beradi.

**Qo‘llanish doirasi:** Monografiya oliy ta’lim bosqichlarining filologiya fakultetlari, adabiyotshunos olimlar, doktorant va ilmiy izlanish olib borayotgan soha vakillari uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi

**Amalga oshirish:** 2017-2020-yillarga mo‘ljallangan ПЗ-20170927147-“Qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo‘lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi” nomli monografiyani chop etishda ilmiy-amaliy loyiha doirasida nashrga tayyorlandi. Loyiha davomida 1 ta darslik, 1 ta majmua, 3 ta monografiya nashr etildi.